

UZUMNING TOIFI NAVINING UN SHUDRING KASALLIGIGA QARSHI KURASH  
CHORALARI

**Normurodov Muhiddin Mamasharif o'g'li**

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat Universiteti qoshidagi  
Agrobiotexnologiyalar va oziq-ovqat xafsizligi instituti "O'simliklar himoyasi" (usullar  
bo'yicha) magistranti  
muhiddinnormurodov81@gmail.com*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada uzumning toifi navining un shudring kasalligiga qarshi kurash choralari, dunyoning uzum yetishtiruvchi mamlakatlarida uzum hosildorligini oshirishda yangi navlarni yaratish, G'ubor zamburug'ning mitseliy, konidioforalari va konidiyalaridan tashkil topishi haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan .*

**Kalit So'zlar:** *agrotexnik, mayiz, Oq Toifi, Pushti Toifi, sersuv, epidyermis, xujayra,gaustoriy, fitotoksik.*

**Abstract:** *This article contains detailed information about measures to combat powdery mildew of grape varieties, creation of new varieties to increase grape productivity in grape-growing countries of the world, formation of mycelium, conidiophores and conidia of Powdery mildew fungus.*

**Key Words:** *agrotechnical, raisin, White Category, Pink Category, swamp, epidermis, cell, haustoria, phytotoxic.*

**Аннотация:** *В статье содержится подробная информация о мерах борьбы с мучнистой росой сортов винограда, создании новых сортов для повышения продуктивности винограда в виноградарских странах мира, образовании мицелия, конидиеносцев и конидий гриба мучнистой росы.*

**Ключевые Слова:** *агротехника, изюм, Белая категория, Розовая категория, болото, эпидермис, клетка, гаустория, фитотоксичность.*

**KIRISH.**

Bugungi kunda dunyo bo'yicha tokzorlarning umumiy maydoni 7 mln. 546 ming gektarni, yalpi uzum hosili 62 mln. tonnani tashkil etmoqda. Yetishtiriladigan uzum hosilining asosiy qismi – 83% vino tayyorlash, 12% yangiligicha iste'mol qilish va 5% quritish (mayiz) uchun ishlatiladi. Dunyo bo'yicha uyetichtirilgan uzumning 31 mln tonnasi Yevropaga, 12,5 mln. tonnasi AQSHga, 13,5 mln. tonnasi Osiyoga, 3,1 mln. tonnasi Afrikaga va 3,1 mln. tonnasi Avstraliya va Yangi Zelandiya mamalakatlari ulushiga to'g'ri kelib, uzum hosildorligi o'rtacha 82,2 s/ga ni tashkil etmoqda. Hozirgi kunga kelib O'zbekistonda yalpi uzum hosili 1,6 ming tonnaga yetdi. Hozirgi vaqtda, dunyoning uzum yetishtiruvchi mamlakatlarida uzum hosildorligini oshirishda yangi navlarni yaratish va eng maqbul agrotexnik tadbirlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Toifi, Toyfi, Sayfi G'ulomi — kechpishar xo'raki uzum navi. Sharqiy ekologikgeografik navlar guruhiga kiradi. Vatani — Arabiston. O'rta Osiyoda qadimdan ekiladi. O'zbekiston, Turkmenistan, Tojikiston, Qozog'iston, Qirg'izistonda keng tarqalgan. Oq Toifi va Pushti Toifi xillari bor. Ularning farqi asosan uzumi rangida. Pushti Toifi ko'proq ekiladi. Tupi kuchli o'sadi. Barglari o'rtacha, to'garak yoki uzunasiga salgina cho'ziq (diametri 14—16 sm), besh bo'lmali, pastga qaragan tomoni tukli. Guli ikki jinsli. Uzum boshi katta (2,5—6,5 kg gacha). G'ujumi yirik, cho'ziq, uch tomoni o'yikli, kungay tomoni pushti. Tarkibida 22—25% qand, 4—5% kislota bor. Po'sti qalin, eti sersuv, karsillaydi. Kurtagi bo'rtgandan keyin faol harorat yig'indisi 3640° bo'lganda 151 — 188 kunda — sentabr oxirida to'liq yetiladi. Novdalari yaxshi pishadi. Hosiddorligi 160—280 s/ga (350 s gacha boradi). Uzumi sakdashga va uzok, joylarga yuborishga chidamli. Yangiligida iste'mol qilinadi. T. baland ishkamlarda va ko'p zangli yelpig'ichsimon shakl berib o'stirilsa, yuqori hosildorlik ta'minlanadi. Tuproq sharoitlariga talabchan emas. O'zbekistonning barcha viloyatlarida yetishtiriladi.

#### ADABIYOTLAR VA METODOLOGIYA.

Un shudring kasallik Shimoliy (vatani) va Janubiy Amerika, G.,arbiy Evropa, Osiyo, Afrika, MDX da Ukraina, Moldaviya, Kavkaz orti mamlakatlari (Armaniston, Gruziya, Ozarbayjon) va Markaziy Osiyoda tarqalgan. O'zbekistonda oidium uzumning eng ashaddiy, keng tarqalgan va zararli kasalligi hisoblanadi. Ayrim manbalarga ko'ra 1914 yilda Toshkent va Farg'ona viloyatlari hududidagi tokzorlar hosilining 50% ni oidium kasalligi nobud qilganligi haqida ma'lumotlar bor. Ushbu kasallik 1929- yilda Samarqand viloyatida ham ancha keng tarqalgan. Bu kasallik bilan O'zbekistonda rayonlashgan quyidagi uzum navlari kuchli zararlanadi; Oq xusayn, Chillaki, Kattaqo'g'on, Qora kishmish, Charos. Bayan Shirey, Morastel navlari esa kamroq zararlanadi. Hozirgi kunda xo'raki navlardan Qorajanjal va Pushti toyfi navlari chidamli deb hisoblanmoqda. Lekin tadqiqotchilarimizning izlanishiga ko'ra bu navlarga ham tushish ehtimoli yo'q emas, balki oldini olish choralari ko'rishimiz kerakligi aytilmoqda. Biz bu maqolada kasallikni chuqur o'rganib, oldini olish choralari atib o'tamiz.

Kasallikning belgilari. Tokning barcha yashil qismlari - barg, barg bandi, yashil novda, gul, tupgul popugi, gajagi, uzumi va uzum boshlari zararlanadi. Zamburug' faqat epidyermis xujayralariga gaustoriylari bilan kiradi va ulardan ozuqa moddalarini so'rib oziqlanadi. Barg zararlanganida, oldin uning ustki tomonida, dastlab oq, so'ngra oqishkulrang, siyrak, nozik gifalardan tashkil topgan, un yoki changga o'xshash, kozga tashlanmaydigan g'ubor paydo bo'ladi, keyinchalik u bargning ostki tomoni, barg bandlari va novdalarga o'tadi. Keyinroq bargda kichik, quruq, qo'ng'ir, tarqoq nekrotik dog'lar paydo bo'ladi, ular bir-biri bilan qo'shilib, tursimon rasm hosil qiladi, bu rasm diagnostik belgi bo'lib, barglarning tirik, yashil fonida yaqqol ajralib turadi. G'ubor zamburug'ning mitseliy, konidioforalari va konidiyalaridan tashkil topadi. Yozilayotgan

Yosh barglar burishib, nimjon bo'lib qoladi. Barg bandlari mo'rt, oson sinuvchan bo'lib qoladi. Zararlangan yashil novdalar ustida juda oz, unsimon g'ubor bilan qoplangan to'q – qo'ng'ir, keyinchalik qora tus oluvchi dog'lar paydo bo'ladi, bunday novdalar deyarli o'smaydi, harorat pasayishiga chidamsiz bo'lib qoladi va qishda ularni sovuq urib ketadi. Kuchli zararlangan novdalar ko'mirday qora, kuygan tus oladi. Kechroq zararlangan novdalar ustida kuzga qarab g'ubor biroz qalinlashadi va qizg'ish-qung'ir tus oladi. To'pgul popugi gullashdan oldin yoki keyin zararlanadi, uzum tugishi kamayadi, xosil pasayadi yoki ko'pincha to'pgul butunlay qurib qoladi.

#### **NATIJA VA MUHOKAMA.**

Kurash choralari. Toklarni shamol yaxshi yuradigan, oftob yaxshi, shpalyerlarga ko'tarib qo'yish lozim. Ularni o'z vaqtida xomtok qilib, ortiqcha novda va barglarini qirqib turish, ayniqsa kuzda zamburug' qishlaydigan zararlangan (usti qo'ng'ir dog' bilan qoplangan) novdalar va bahorda birinchi paydo bo'lgan zararlangan 'bayroq nodalar' kesib olinishi va yo'qotilishi juda muhim, agar bu chora qo'llanilmasa, boshqa kurash usullarining samarasi juda pasayadi. Toklar orasidagi yerni ag'darib, begona o'tlardan tozalab turish, zararli hasharotlar va boshqa kasalliklar kurash choralari qo'llash talab etiladi.

O'tkazilgan tajribalardan olingan ma'lumotlarga ko'ra, tok mavsumda bir marta xomtok qilinganda Qora kishmish navi barglari, novdalari va uzum boshlarining oidium bilan zararlanishi xomtok qilinmagan nazorotga nisbatan 18-28% va antraknoz bilan zararlanishi 26-31% ga kamaygan, hosil deyarli 2 marta oshgan (gektariga 40 sentnyerdan 79 sentnyergacha); ikki marta xomtok qilinganda esa, har ikkala kasallik bilan zararlanish 50-56% ga kamaygan va hosildorlik 110 sentnyerga etgan. Tok oralarini kuzda va bahorda haydash ham bu kasalliklar rivojlanishini kamaytirgan va hosildorlikni deyarli 2 baravar ko'paytirgan. Kimyoviy himoya uchun oltingugurt preparatlari (to'yilgan kukuni, n. kuk., kolloid, sus. K., ohak-oltingugurt qaynatmasi va b.) yuqori samara bilan qo'llaniladi. O'zbekistonning quruk ob-havoli iqlimida kukun shaklidagi oltingugurt ishlatish yuqori samara beradi, yomg'irli ob-havoda esa suspenziya qo'llash tavsiya qilinadi. Oltingugurt pyereparatlari tokni havo harorati 25-30 oC bo'lganida kasalliklardan yaxshi himoya qiladi, 18-20 oC da deyarli samara bermaydi. Harorat 30 oC dan oshganda u o'simliklarga fitotoksik ta'sir ko'rsatadi 35 oC va undan yuqori haroratda oltingugurt ishlatish tavsiya qilinmaydi.

#### **XULOSA.**

Kuzda barglar to'kilgandan va tok kesilgandan keyin yoki bahorda kurtaklar Yozilishidan oldin tokka 1,5% li DNOK (100 l suvga 1,5 kg) yeritmasiga 2-3% (100 l suvga 2-3 kg) №30 preparatini qo'shib purkash yoki temir sulfatning 10% li yeritmasini sepish lozim. Bahorda yosh novdalar uzunligi 5-10 sm ga etganida yoki 2-3 barg paydo bo'lishi bilan Bordo suyuqligi yoki boshqa samarali fungitsid purkash va kasallik rivojlanishini hisobga olgan holda, lozim topilsa ishlovni 7-10 va 14-20 kundan keyin takrorlash tavsiya qilinadi.

**FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:**

1. Qishloq xo'jaligi ekinlarini parvarishlash va mahsulot yetishtirish bo'yicha namunaviy texnologik xaritalar 2016-2020 yillar uchun, 2-qism. T., 2016.
2. 20. Mahmudov G'.G'. – Zamonaviy uzumchilik asaslari. T., 2020.
3. 21. Морозова Г.С. Виноградарство с основами ампелографии (практический курс). Москва, 1978 г.
4. 22. Hasanov B.A., Ochilov R.O., Xolmurodov E.A., Gulmurodov R.A. – Mevali va yong'oq mevali daraxtlar, sitrus, rezavor mevali butalar hamda tok kasalliklari va ularga qarshi kurash. T., 2015.
5. 23. O'zbekiston Respublikasi hududida ekish uchun tavsiya etilgan qishloq xo'jalik ekinlari Davlat Reestri. T., 2018.
6. 24. Ампелография Узбекистана, T., 1989.